

BUYUK MUARRIX MALIKA

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi,
Namangan davlat universiteti, Tarix yoʻnalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Ilmiy rahbar: Zoxid Madraximov
Namangan davlat universiteti,
Tarix kafedrası dotsenti, t.f.n.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi, boburiy malika Gulbadanbegimning ibratli hayot yoʻli va ijodiy faoliyati, uning jahonga mashhur boʻlgan “Humoyunnoma” asari haqida maʼlumot keltirilgan.

Kalit soʻzlar:

Bobur Mirzo, Akbarshoh, Mohim begim, Dildor begim, Margaret Rumer, A.S.Beverij, Kobul, Agra, “Gulbadan”, “Humoyunnoma”, navkar, yalovbardor

Абстрактный:

В статье представлена информация о образцовой жизни и творчестве принцессы Бабура Гульбаданбегим, дочери Захириддина Мухаммада Бабура, и ее всемирно известном произведении «Хумаюннаме».

Ключевые слова:

Бабура Мирза, Акбар Шах, Мохим Бегим, Дилдар Бегим, Маргарет Румер, А.С. Беверидж, Кабул, Агра, «Гульбадан», «Хумаюннама», Навкар, Яловбардар

Abstract:

This article provides information about the exemplary life and creative work of the Babur princess Gulbadanbegim, daughter of Zahiriddin Muhammad Babur, and her world-famous work "Humoyunnama".

Keywords:

Babur Mirza, Akbar Shah, Mohim Begim, Dildor Begim, Margaret Rumer, A.S. Beveridge, Kabul, Agra, "Gulbadan", "Humayunnama", navkar, yalovbardar

Gulbadan iymoni butun, taqvodor muslima edi.

Margaret Rumer Goden

Jonajon Vatanimiz O'zbekistonning uzoq o'tmish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, hozirda dunyo ahli tomonidan e'tirof etilgan ilm-u fanlar qadimdan rivojlangan. Ilm-fanning eng gullab yashnagan davri buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davriga borib taqaladi. Amir Temur o'z davrining barcha ilm sohalarini puxta egallab, davlatining ma'naviy hayotiga munosib homiylik qila olgan edi. Amir Temurning o'g'illari, nevara va chevaralari ham o'z davrining ilmlarini puxta egallashgan. Bobur va boburiylar ham asli Amir Temur naslidan bo'lib, ular barpo etgan buyuk imperiya Hindistonda 1526-yildan to 1858-yilgacha mavjud bo'lgan. Shahzodalar singari temuriylar va boburiylar sulolasiga mansub malikalar orasida ham istododli siyosatdon, suhandon, yetuk olima va xassos shoirlar yetishib chiqqan. Ular tarix zarvaraqlarida o'zlaridan o'chmas iz qoldirganlar. Shulardan biri Zahiriddin Muhammad Boburning uchinchi qizi Gulbadan begimdir. U o'z zamonasining oqila, donishmand ayollaridan biri bo'lgan.

Gulbadanbegim Zahiriddin Muhammad Boburning Dildorbegim nomli xotinidan tug'ilgan qizidir. Gulbadanbegim 1523-yili Kobulda tug'ilgan. Uning onasi Dildorbegimning haqiqiy ismi – Soliha Sultonbegim bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning qizi edi. Gulbadanbegim otasi Bobur Mirzoning farmoniga ko'ra, katta onasi, ya'ni Humoyun Mirzoning onasi – Mohimbegim qo'lida tarbiyalanadi. Mohimbegim Boburning eng sevikli katta xotini, hukmdorning xotinlari orasida eng oqila va bilimdon edi. Binobarin, 1525-yili Gulbadan begimni Mohimbegim o'z tarbiyasiga oladi. Gulbadan begim har ikkala onasini ham samimiy e'zozlagan. U o'z asarida onasini "Dildorbegim" deb, Mohimbegimni esa, "onam hazratlari" deb tilga oladi.

Gulbadanbegim 1529-yilgacha Kobulda yashagan. Bobur Hindistonni qo'lga kiritgach, Mohimbegim bilan birga podshoh otasining huzuriga – Agraga boradi. Otasi Bobur vafotidan so'ng, akasi Humoyun Mirzoning saroyida yashaydi. 1539-yilda Gulbadanbegimni Xizr Xo'jaxonga turmushga beradilar. U bir o'g'il ko'radi, ismini Saodatyor deb ataydi. 1556-yili Humoyunning vafotidan so'ng saltanat taxtiga uning o'gli Akbarshoh o'tirgach (1542-1605) o'tirgach, shohning onasi Xamidabonu begim bilan Gulbadanbegim saroyga – Dehliga qaytib keladilar. Ana shundan so'ng, Gulbadanbegim to umrining oxirigacha jiyani Akbarshoh saroyida yashaydi [1. – B. 15.].

Gulbadanbegim o'z zamonasining oqila, donishmand ayollaridan edi. U jiyani Akbarshohning “Firdavs makon va jannat oshyon Hazrat haqidagi voqealardan nimaiki bilsangiz yozingiz!”, degan ishorasiga muvofiq, “Humoyunnoma” nomli ajoyib va muhim tarixiy asarini yozishga kirishadi. “Humoyunnoma” Bobur Mirzo bilan Humoyun Mirzoning hayot tarzi va sarguzashtlarining muxtasar tarixi bo'lib, mantiqan “Boburnoma”ning davomidir. Bu asarning muhimligi yana shundaki, “Boburnoma” asaridagi ayrim voqealarning kelib chiqish sabablari mukammal ochib beriladi. Ammo asarning oxirgi qismi o'sha zamonning suronli yillarida yo'qolib ketgan [2. – B. 30.]. Asarda XV asrning oxiri – XVI asrning o'rtalarida Movarounnahr, Afg'oniston va Hindiston hududlarida ro'y bergan voqea va hodisalari bayon qilinadi. Gulbadanbegim o'z asarida saroy ahlining hayot tarzi, shuningdek, tarixiy asarlarda uchramaydigan Bobur Mirzo xonadodining nozik xususiyatlari, oilaviy sharoitlari, to'y va aza bilan bog'liq udumlar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak turlari kabi jihozlar haqida mufassal hikoya qiladi. Asar forsiyda yozilgan. Gulbadanbegim Boburning tarixnavislik sohasidagi an'analarini davom ettirib, kitobida tarixiy voqealar bilan birga madaniyat, adabiyot, tilshunoslik, geografiya, etnografiya va boshqa sohalarga oid ma'lumotlarni ham keltirgan [3.]. “Humoyunnoma” asari tarix, geografiya, etnografiya, til va adabiyot faniga qiziquvchilar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi [2. – B. 31.].

Mir Mahdi Mirzoning “Tazkirat ul-havotin” asarida keltirilgan “Sevgisiz hayotda ma’no yo’q” mazmunidagi ikki baytiga qaraganda, Gulbadan begimning g’azaliyotdan ham xabari bo’lgan.

“Akbarнома” asarining muallifi Abul Fazlning bergan ma’lumotiga qaraganda, 1575-yilda Gulbadanbegim Kabatilloh ziyoratiga jo’nab ketadi va 1582-yilda ko’p qiyinchiliklar bilan ziyoratgohdan qaytib keladi. Abul Fazlning yozishicha, Gulbadanbegim 1603-yilda 80 yoshida vafot etadi. Akbarshoh uni katta hurmat va ehtirom ila dafn ettiradi, o’g’li sifatida Gulbadanbegimning tobutini ko’tarib, o’g’illik burchini ado etadi [1. – B. 15.].

Hozirgi kunda “Humoyunnoma” asarining qo’lyozma va tarjimalari mavjud. Bugungi kunda asarning 83 varoqdan iborat yagona qo’lyozma nusxasi Britaniya muzeyida saqlanadi. Unda voqea tugallanmagan, ingliz sharqshunosi Charlz Ryo o’z katalogida uning qisqa tavsifini bergan. Ingliz olimasi A.S.Beverij 1902-yili Londonda ingliz tiliga, Saboxat Azimjonova 1959-yili Toshkentda o’zbek tiliga tarjima qilib, forsha asl nusxasi va izohlari bilan nashr ettirganlar [3.]. Hozirda asarning yangi tarjimasi A. Qurbonbekov tomonidan tayyorlagan. Asarning muallifi haqida ingliz adibasi Margaret Rumer (1904-1998) 1980-yilda “Gulbadan” nomli kitobini yozadi. Bu asar 4 qismdan iborat bo’lgan:

1. Boburshoh davri.
2. Boburshoh.
3. Humoyun hukmronligi davri.
4. Akbar hukmronligi davri [4. – B. 155.].

“Gulbadanning nurli qalami bilan tasvirlangan xotiranoma – uzoq o’tmishda bo’lib o’tgan voqealarni shunchalik aniq va haqqoniy tarzda bayon qiladiki, o’quvchi go’yoki teleskopga tikilib turgan kichik malikani ko’rgandek bo’ladi. Muallif, shahar qal’asi devori ustidan turib navbatdagi raqibiga qarshi jangga shaylanayotgan yoki erishga g’alabasini nishonlayotgan sarbozlarni kuzatib turgan ayollarning ichki dunyosini mahorat bilan tasvirlab beradi. Shahar atrofidagi bog’larda osudalik hukm surayotgani, vohaning qorli tog’lari uzra osmonga ko’tarilayotgan chang bulutiga ko’z

tikib turgan kichik malika qiyofasi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Osmon uzra ko'tarilayotgan chang esa u orziqib kutayotgan podshoh otasidan xabar yetkazuvchi choparning yaqinlashib kelayotganidan dalolat beradi. Gulbadan, taxminan 2-3 yoshida ekan, otasi Bobur Mirzoni a'yonlari, amir va beklari, yalovbardorlari va navkarlari bilan navbatdagi harbiy yurishga o'tlanayotgan holda ko'rganini eslaydi...

Bobur bunyod etgan davlat, garchi bobolariniki singari bepayon mintaqalarga yoyilmagan bo'lsa-da, u o'z saltanatining sultoni, buyuk imperatori darajasiga ko'tarildi. O'z mulkida boshqaruv tizimini mahkam tutib, uni mohirlik bilan idora qildi. Bu o'lkani 332 yil davomida mahorat bilan boshqargan buyuk sulolaga asos soldi" [5.]deb yozadi, Margaret Rumer o'z asarida.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Gulbadanbegim ham temuriy, ham boburiy malikadir. U boshqa boburiy malikalarga qaraganda, zukkolik-u bilimdonlikda, aql-u idrokda alohida ajralib turar edi. Margaret Rumer Godenning "Gulbadan" asarida u haqida yana shunday tariflar keltirilgan: "...U ertaklarda uchraydigan afsonaviy qahramonlarga xos nafis ism – Gulbadan degan go'zal nom bilan atalardi. Umrining to'fonli va shiddatli damlarida ham u o'zining "Gulbadan"ligini saqlab qola olgan mo'tabar bir inson edi".

Gulbadanbegim o'z davrining o'qimishli kishilaridan biri bo'lganligi uchun ham keyinchalik otasi Bobur Mirzoning tarixnavislik, g'azalxonlik faoliyatlarini ham davom ettirdi. Gulbadan begimning "Humoyunnoma" asarining ishonchlilik darajasi ham juda yuqori, chunki muallif, undagi voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va o'sha davr muhitini o'zi ham his qilgan. "Humoyunnoma" davri, undagi ilmi mukammal bo'lgan asardir. Bunday turdagi asarlarni ko'proq o'qish orqali biz o'sha davrdagi muhit va insonlar haqida xolis fikr chiqara olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fayziyev T. Temuriy malikalar. – T.: A.Qodiriy nomidagi "Xalq merosi" nashriyoti, 1994.
2. Fayziyev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – T.: Yozuvchi, 1996.
3. Gulbadan begim / https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gulbadan_begim

4. Saidqulova I. Gulbadan begim shaxsiga tavsif. / www.in-academy.uz. Central ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION. Volume 2, Issue 11, Part 3 November 2023
5. Uzbook_Zahiriddin Muhammad Boburning oqila qizi Gulbadan begim. “Gulbadan” asaridan parchalar.